

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA METODIK TAYYORLASHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI

G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10830194>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada bo'shlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlash, uning zaruriyati va istiqbollari muhokama qilinadi.

*Kalit so'zlar:* mantiqiy fikr, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, mantiqiy tafakkur, dars, metod.

## THE NECESSITY AND PROSPECTS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING

*Abstract.* This article discusses methodical training of elementary school students for logical thinking, its necessity and prospects.

*Key words:* logical thinking, future elementary school teacher, logical thinking, lesson, method.

## НЕОБХОДИМОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ К ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

*Аннотация.* В данной статье рассматривается методическая подготовка учащихся младших классов к логическому мышлению, ее необходимость и перспективы.

*Ключевые слова:* логическое мышление, будущий учитель начальных классов, логическое мышление, урок, метод.

---

Yangi O'zbekistonni qurish va uchinchi renesans davri o'tayotgan bir vaqtda ta'lim sohasidagi eng quyi va asosiy pog'onalardan biri bo'lgan maktab ta'limi tizimida yetarlicha yangilanish va islohotga muhtoj yo'nalishlar mavjud. Ta'kidlash o'rinliki, boshlang'ich ta'limda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarining pastligi asosan boshlang'ich ta'limda zamonaviy o'qitish shakl va usullarining mukammal emasligi bilan izohlanadi. Shu sababli o'quv jarayonida salohiyatli kadrlarni jalb etish haqida so'z borar ekan, avvalo aynan boshlang'ich ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, maktabga axborot kompyuter texnologiyalari, elektron o'quv vositalarini tatbiq etish zarurligini yodda tutishimiz zarur.<sup>1</sup> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy talablarga javob bera oladigan pedagog bo'lishi uchun kompyuter bilan ishlash malakalarini

---

<sup>1</sup> Мироненко С.Н. Интерпастия педагогического и технического знания как условие подготовки педагога профессионального обучения к диагностической деятельности: Дисс. ... канд. пед. наук. – Череповец, 2014.

egallashi va bu orqali o'z ishida betakror ko'makchiga ega bo'lishini anglab yetishi lozim. O'quv-tarbiya jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalarni qo'llab, biz quyidagi vazifalarni hal etamiz:

- o'qishga qiziqish va motivatsiyani orttirish;
- o'quv malakalarini shakllantirish;
- ta'limda individual va tabaqalashgan yondashuvni amalga oshirish.
- kompyuter bilan ishlashga oid dastlabki malakalarni shakllantirish.

Yuqorida ushbu texnologiyalar pedagogning hozirgi kundagi asosiy quroli ekanligini ta'kidlab o'tildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy tafakkurning shakllanishi ko'p jihatdan zamon bilan hamnafas bo'lish va o'z tajribasida zamonaviy metodikadan foydalanishda ham amaliy natija bera oladi.

An'anaviy darslarda o'qituvchi o'quvchilarga turli o'yinlarni taklif qilgani holda, barcha o'quvchilarni o'yinga jalb etish, ularning faoliyatlarini nazorat qilish va individual va tabaqalashgan yondashuvni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday darslarga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi ko'rgazmali materiallarni tayyorlash va yig'ishda ham qiynaladi. Bo'lajak pedagogning ilm-fan yutuqlaridan xabardorligi ushbu qiyinchiliklarni tez, oson yengib o'tishiga yordam beradi.<sup>2</sup>

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlash va bu masalani amalga oshirish pedagogik sharoitlarini joriy etish uning mutaxassisligi doirasida ma'lum fanlarni o'zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtda sodir bo'lib, ular tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib berdi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari umumta'lim maktablarining matematika kurslari mavzularini ham shu asosda o'tishi, ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darsligi mavzularini axborot texnologiyalaridan foydalanib o'rgatishi maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak soha kadrlarini o'rgatish jarayonida ularga quyidagilardan saboq berilishi lozim:<sup>3</sup>

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish;
- multimedia va uning texnik-dasturiy vositalarida ishlay olish;
- internet tarmog'ining asosiy xizmatlari va resurslaridan foydalana olish;
- Matematika va boshqa fan darslarida elektron o'quv qo'llanmadan foydalanish istiqbolli

bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

<sup>2</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007.

<sup>3</sup> Nazarova B.A. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash: Dis. ... ped. fan. dok. – T.: 2018.

- ta'limiy-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni kompleks amalga oshirish;
- har bir o'quvchi oldiga uning layoqati, motivatsiyasi, tayyorgarlik darajasiga ko'ra (AKT vositalari imkoniyatlariga bog'liq holda) maxsus vazifa qo'yish;
- o'quv faoliyatini faollashtiruvchi, o'quv xarakteridagi elektron vosita tiplarini qo'llash;
- o'qituvchini axborot berish, mustahkamlovchi mashqlar o'tkazish va nazorat vazifalaridan qisman ozod qilish;
- o'quvchida bilimlarni mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantiradi; - Internet tarmog'idan ma'lumotlar to'plash, izlash va qayta ishlash malakalarini o'stirish;
- ko'rgazmalilikning barcha turlari o'zaro integratsiyalashishi sababli ijobiy o'quv motivatsiyalarini tarkib toptirish;
- rivojlantiruvchi mashqlar va amaliy mashg'ulotlarni elektron o'quv qo'llanma vositasida tashkil etish, o'quvchilarda mantiqiy va mustaqil tafakkurni o'stirish;
- ishlab chiqilgan test topshiriqlari yordamida o'quvchilarga o'z bilimlarini nazorat qilish, kamchiliklarini tuzatib borish va o'z ustida mustaqil ishlashga imkon yaratish;
- tezkor teskari aloqa va rivojlangan ko'mak tizimi orqali o'quv faoliyatini amalga oshirish kabilar.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, idrok etish, tasavvur qilish va bilimlarni o'zlashtirishga qobiliyatlilik deganda fazoviy tasavvur etish va idrok qilish, abstraksiya, aqliy obrazlar va fikrlashning maxsus ko'rinishlaridan foydalanish tushuniladi.<sup>4</sup>

Pedagogik shart-sharoit va metodik jihatdan bo'lajak pedagoglarga quyidagi asosiy tushunchalarni mantiqiy fikrlash komponentlari sifatida chuqur singdirish lozim:

- Ona tilidan noan'anaviy darslarda boshqotirma rebuslardan foydalanish va munosabatlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga qobiliyatlilik o'rganilayotgan predmetga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni, ularning eng muhimlarini va ularning boshqa hodisalar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash ko'nikmasi hamda mantiqiy topshiriqlarni bajarishga qobiliyatlilikni qamrab oladi.

- Obrazli tushunchalar va mulohazalarga tayanish deganda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga y o'naltirilgan amaliy va ijodiy topshiriqlar hamda mashqlar va materiallarni formal qabul qilish, ona tiliga oid bilim, ko'nikma va malakalarni nisbatan tez va chuqur egallash, moslashuv fikriy amallarni takomillashtirishga qobiliyatlilik, aniq amaliy masalalarni tavsiflovchi muammoli topshiriq va masalalarni yechish ko'nikma va malakasi tushuniladi.<sup>5</sup>

- Refleksiyaga qobiliyatlilik deganda harakat va qonunlarni anglashga yo'naltirilgan nazariy faoliyat, o'zini-o'zi anglash, o'zaro bir-biriga bog'liq mantiqiy amallarga tayanish,

<sup>4</sup> Rahmatova F.A Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirish Diss..ped. fan(PhD) Chirchiq – 2019 31-b

<sup>5</sup>

mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilish, induksiya va deduksiya metodlarini tushunish va ularni to'g'ri qo'llashga qobiliyatlilik tushuniladi.

• Nutqqa oid fikrlarni mustahkamlash deganda esa, bizning fikrimizcha, intuitiv tasavvurlarni belgili konstruksiyalar bilan almashtirish, sonli va belgili sohada mantiqiy fikrlashga qobiliyatlilik tushuniladi.

Metodik jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlashda maxsus tashkil etilgan didaktik shart-sharoitda matematik hisob-kitob va analitik qobiliyatning qayd etilgan muhim tavsiflarini maqsadli va tizimli rivojlantirish mantiqiy tafakkurni takomillashtirishga xizmat qiluvchi asos bo'lib hisoblanadi. N.F. Talizinning fikriga ko'ra maqsadlar, bilim, ko'nikma va malakalar ta'limda ta'riflanadi, lekin har bir ko'nikma aynan shu ko'nikma yordamida yechiladigan vazifalarni nazarda tutadi. Bilimlar muayyan faoliyat elementi hisoblanadi va u bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy tafakkurni takomillashtirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyatning muhim jihati:

- o'quv motivlari uchun ehtiyoj;
- mustaqil bilish faoliyatini tashkil etish;
- hamkorlikda faoliyat va muloqotni tashkil etish;
- o'quv faoliyatda aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish tamoyilidan foydalanishdan iboratdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlashni takomillashtirish pedagogik holatiga ko'ra murakkab jarayon bo'lib, o'z ichiga turli fan mazmunini qamrab oladigan ta'limiy tushunchalarga tayanishni taqozo etadi, unda tushuncha va amaliy harakatlar o'rtasidagi uzviy aloqa muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan ta'lim texnologiyalarini ta'limni individuallashtirish, bilimlarni didaktik sintezlash, ta'limning tizimlilik, ta'limni axborotlashtirish tamoyillariga asoslanib amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi pedagogika fanining ham asosiy maqsadiga aylab bormoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlash va ularning mantiqiy tafakkurini takomillashtirish aqliy amallar (tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish va amaliyotga qo'llash) bajarilishining yuqori darajasi, tafakkurning tejamliligi va mustaqilligi, uning moslashuvchanligini ko'zda tutadi.

## REFERENCES

1. Utemov V. V., Zinovkina M. M., Gorev P. M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - Kirov: ANOO "Hududlararo CITO", 2013. - 212 p.

2. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
3. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TA'LIM FIDOYILARI.
4. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MURAKKAB MASALALARNING AHAMIYATI. Scienceweb academic papers collection.
5. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlarini o'stirish metodikasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy habarlari.
6. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
7. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ.
8. Ganiyeva, M. (2018). Yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari. INTELLEKTUAL SALOHİYAT-TARAQQIYOT MEZONI.
9. Ganiyeva, M. (2018). Uzluksiz ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishga pedagogik-psixologik yondashish. NamDU ilmiy axborotnomasi.
10. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlarini o'stirish metodikasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy habarlari.